# “Oʻzkimyosanoat” AJ Xotin-qizlar boshlangʻich tashkiloti “Eng namunali boshlangʻich tashkilot – 2022” respublika tanlovida faxrli 2-o`rinni qoʻlga kiritdi

// 26.12.2022
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/eng-namunali-boshlangich-tashkilot-2022




Joriy yil 26-dekabr sanasida Oʻzbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi tomonidan oʻtkazilgan, 4600 dan ortiq ishtirokchilarni qamrab olgan “Eng namunali boshlangʻich tashkilot – 2022” respublika tanlovida “Oʻzkimyosanoat” AJ xotin-qizlar boshlangʻich tashkiloti raisi Sanobar Abduraxmanovaning ish faoliyati faxrli 2-oʻringa munosib koʻrildi.

Taʼkidlash joizki, “Oʻzkimyosanoat” AJda xotin-qizlar boshlangʻich tashkiloti mamlakatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan xalqchil islohotlarga mos ravishda faoliyat olib bormoqda. Qator Farmon va qarorlarning ijrosi soʻzsiz taʼminlanmoqda. Ushbu faoliyat  Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi tomonidan eʼtirof etildi. Bu jamiyatimizda xotin-qizlarga boʻlgan eʼtiborning samarasidir.

Shuningdek, Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi tomonidan mehnat jamoalaridagi boshlangʻich tashkilotlar oʻrtasida oʻtkazilgan “Eng namunali boshlangʻich tashkiloti – 2022” koʻrik-tanlovining “Eng namunali korxona boshlangʻich tashkiloti” nominatsiyasida Qashqadaryo viloyati boʻyicha “Dehqonobod kaliy

zavodi” AJ xotin-qizlar boshlang‘ich tashkiloti raisi Muxtasar Karimova g‘oliblikni qo‘lga kiritib, diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.




КУНИЙ РЕСПУБЛИКА БОСҚИЧИ
АҚДИРЛАШ МАРОСИМИ
Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


“Йил аёли”
Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26
"O‘zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI